



NOMINATIV BIRLIKLAR TADQIQI

Iltomjonov Ahmadjon

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qayumova Gulshodaxon Po'latjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nominativ birliklar haqida umumiy nazariy qarashlar va uning bir turi sifatida antroponimlarning xos xususiyatlari, tasnifiy guruhlari keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: onomastika, atoqli nom, milliy o'zlik, lison, nomlash usuli, odam tushunchasi, onomastik konversiya, transantroponimizatsiya, antroponimlar.

Аннотация: В данной статье представлены общие теоретические взгляды на номинативные единицы, а также специфические особенности и классификационные группы антропонимов как их типа.

Ключевые слова: ономастика, имя собственное, национальная идентичность, язык, метод именованья, понятие лица, ономастическая конверсия, трансантропонимизация, антропонимы.

Annotation: This article presents general theoretical views on nominative units and the specific features and classification groups of anthroponyms as a type of them.

Keywords: onomastics, proper name, national identity, language, naming method, concept of person, onomastic conversion, transantroponimization, anthroponyms.

KIRISH

Tilning asosiy vazifalaridan biri bu borliqdagi mavjud predmet, hodisa va tushunchalarni nomlash hisoblanadi. Nominativ birliklarni o'rganish orqali esa tilning borliqni qanday nomlashi va tasniflashini aniqlash mumkin. Nominatsiya jarayoni inson tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli ham nominativ birliklarni tadqiq qilish orqali insonning borliqni idrok etishi va uni til orqali



ifodalash mexanizmi o'rganiladi. Ularni o'rganish til boyligini, so'zlarning paydo bo'lishi va qo'llanish xususiyatlarini aniqlashga bevosita yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Onomastika - yunoncha so'z bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi, 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Onomastika tilshunoslikning bo'limi sifatida mavjud fan, uning o'ziga xosligi nomlarning yug'indisi bilan bog'liq. Ma'lumki, onomastika 1930-yilda Fransiyada birinchi Xalqaro onomastik kongress yig'ilishida rasman mustaqil fan sifatida belgilangan. Qadimdan tilshunos olimlar ham nomlar bilan qiziqqanlar. Jumladan, Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi bo'lgan "Devoni lug'otit-turk" asarida Mahmud Koshg'ariy 6800 dan ziyod turkiy so'zlarni guruhlashtirgani, ulardan 110 hudud, ko'l va daryo, 40 elat va qabila nomlarini turkiy tilda izohlagani ma'lum. Fransuz tilshunosi Albert Doza(1877- 1955)ning tashabbusi bilan esa Fransiyada xalqaro onomastik kongresslar o'tkazilgani ma'lum.

"Onomastika" fanining asosiy vazifasi sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rganishning usullari haqida ma'lumot berishdan iborat. Yuqorida berilgan ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarning kelib chiqishi, turlari, uslubiy xususiyatlari, o'zgarish tarixini tadqiq qiluvchi bo'limi hisoblanib, tildagi barcha atoqli otlarni o'zida jamlaydi.

"Onomastika" fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi:

antroponim – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari),

toponim – geografik obyektlarning atoqli nomlari,

teonimiya – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari,

zoonim – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar,



kosmonim – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari,

astroponim – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o‘zida ifodalaydi.

Ma’lumki, har bir onimik leksema ma’lum bir ma’noni beradi, ya’ni leksema joy yoki shaxs haqida xabar yetkazishi mumkin. Bu xabar esa maxsus onomastik vazifani bajaradi va uslubiy hamda estetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir onomastik leksema bir sohada emas, balki bir necha sohada ham ma’lum bir xabarni tashishi mumkin.

Antroponim – kishining atoqli oti, ismi. Antroponimika – leksikologiya (onomastika)ning kishi otlari(ismlari)ni o‘rganuvchi bir bo‘limi. Shaxs nomlari ham boshqa leksik birliklar singari o‘zining umumiy va xususiy belgilari bilan bir leksik sistemaga birlashadi.

O‘zbek tilshunosligida antroponimika masalalarini o‘rganish, ularni ilmiy tadqiq qilish ham o‘z tarixiga ega. Bu sohada S.Ibrohimov, E.Begmatov, R.Qo‘ng‘urov, A.Muxtorov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, G‘.Sattorov va boshqalar qator maqola va monografiyalar e’lon qildilar.

O‘zbek antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog‘liq ayrim dolzarb muammolar ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. O‘zbek tarixiy antroponimiyasining barcha kategoriya va komponentlarini – kishi ismlarini, laqablar hamda taxalluslarni o‘tmishda o‘zbeklar uchun rusum bo‘lgan arabcha, forsha shakllarini har tomonlama o‘rganish.

2. Mifonim va teonimlarni to‘la o‘rganib chiqish.

3. Antroponimlarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish. Masalan, Bobur asarlarida antroponimlar kabi.

4. Antroponimlarning imlosi masalasi.

5. Nomlarning izohli, orfografik, etimologik lug‘atlarini tuzish va hakazo.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, antroponimlarda polisemiya hodisasi uchramaydi. Ammo antroponimlarda polionimiya (atama A.V.Superanskayaniki) hodisasi anchagina uchraydi. Bunga “Alpomish” dostonidagi *Alpomish* va *Hakimboy* nomlari



misol bo'lad. Xuddi shuningdek, ismlar turli millat vakillari nutqida turli variantlarda ishlatili mumkin: *Ibn Sino – Avetsena, Aristotel – Arastu* kabi.

Antroponimlarning ism guruhiga kiruvchi birliklar quyidagi mavzu yo'nalishlariga ajraladi:

1. Tanadagi biror belgiga qarab nomlangan ismlar: *Xoljon, Norjon, Norboy, Ortiq, Qorajon* kabi.

2. Ismda tug'ilish payti, davri, o'rni, holati kabi belgilaridan birining aks etishi: *Ramazon, Hayit, Juma, Navro'z, Yo'lchi, Yodgor* kabi.

3. Hayvon nomlari bilan bog'liq ismlar: *Bo'ri, Arslon, Sher, Qo'chqor, Qo'zi* kabi.

4. Qush nomlari bilan bog'liq ismlar: *Lochin, Burgut, Qaldirg'och* kabi.

5. Etnonimlar bilan bog'liq ismlar: *Mingboy, Chig'atoy, O'zbek(xon)* kabi.

6. Qarindoshlikni ifodalovchi ismlar: *Jiyangul, Tog'aboy, Bibigul, Bobo(qul)* kabi.

7. Samoviy jismlar bilan bog'liq ismlar: *Yulduz, Sayyora, Zuhra, Mushtariy, Xurshid(a), Oftob* kabi.

8. Joy bilan bog'liq ismlar: *Toshkanboy, Buxorboy, Osiyo* kabi.

9. Diniy qarashlar bilan bog'liq ismlar: *Abdulla, Abdurahmon, Muhammad, Ali, Qutbiddin, Salohiddin* kabi.

10. Turli orzu-istak, xohish, niyat bilan bog'liq ismlar: *Fozil, Rustam, Hakim, Bahodir* kabi.

11. Daryo nomidan olingan ismlar: *Zarafshon, Sirdaryo* kabi.

12. O'simlik nomi bilan bog'liq ismlar: *Lola, Nilufar, Nastarin, Binafsha* kabi.

13. Mashhur tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq ismlar: *Islom, Alisher, Bobur* kabi.

14. Turli qimmatbaho ma'dan va narsa nomi bilan bog'liq ismlar: *Gavhar, Durdona, Marjona, Marvarid, Kumushbibi, Oltinoy, Yoqutoy* kabi.

15. Fasl, vaqt bilan bog'liq ismlar: *Bahora, Navbahor, Gulbahor* kabi.



16. Tozalik, soflik tushunchalari bilan bog‘liq ismlar: *Munavvara, Ravshan, Nuriya* kabi.

Badiiy adabiyotda ko‘pincha ism qahramon xarakteriga ishora qilib keladi. Qahramonlar, odatda, ismlarining mazmuniga mos xarakterga ega bo‘ladi.

Atoqli adibimiz Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ham uslubiy xoslangan ism va laqablar mavjud.

“...Lekin shunday bo‘lsa ham so‘zlab berayin, — dedi va yostiqni ko‘ksiga qo‘yib olgach, hikoyasini boshladi:

— Men o‘zim asli qo‘qonlikman. Ota-onamdan yoshlikda yetim bo‘lib, tog‘amning qo‘lida o‘sdim. Yoshim 17–18 larga borgandan so‘ng o‘z kunim o‘zimga qolib, bir o‘rtog‘imning kengashi bilan bundan yigirma yillar burun Marg‘ilonga kelib, bu kungi ustakorimning otasiga to‘quvchilik hunariga shogird tushdim. To‘rt yil chamasi qilgan xizmatimdan so‘ng haligi ustakorga xalfa bo‘lib ishlay boshladim. Boshqa yigitlardek ortiqcha o‘rinsiz sarflarim bo‘lmagani uchun oz zamon ichida uch-to‘rt tilla pullik ham bo‘ldim. Ishimga ixlos bilan qaraganim uchun mening to‘qugan ishlarim o‘zgalarinikidan qadrlı yurar va xalq orasida ham o‘tim «usta Alim kichkina» bo‘lib shuhratlangan edi...”

Yuqorida keltirilgan “*usta Alim kichkina*” birikmasidagi *usta* mazkur qahramonning hunaridan kelib chiqib tanlangan va obrazning o‘z tilidan bayon qilingan.

XULOSA

Antroponimlarning badiiy matnda qo‘llanib, qahramon xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda antroponimlar (shaxs nomlari) qahramonning xarakteri, ijtimoiy mavqei, milliy mansubligi yoki ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Yozuvchi personajga ism tanlash orqali uning fe‘l-atvori va obrazini yanada jonli va esda qolarli qiladi. Bundan tashqari asarning badiiy-estetik ta‘sirini kuchaytirish vositasi bo‘la oladi. Antroponimlar badiiy matnda obrazlilikni oshiradi, asarning milliy koloritini yaratadi va voqealar muhitini realroq tasvirlashga yordam beradi. Shu orqali o‘quvchi asar qahramonlarini yaxshiroq tasavvur qiladi va matnning ta‘sirchanligi ortadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
2. Нарзиева М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, 5-сон.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М.: 1973.
4. Улуқов Н. Наманган вилояти гидронимиясида ономастик конверсия ва трансонимизация// Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. 5-сон.
5. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. Т.: 2007.
6. Зинин С. И. Введение в русскую антропонию. –Т.: Наука, 1972.
7. Баскаков Н.А, Содиқов А.С, Абдуазизов А. А. Умумий тилшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
8. Kilichev V. Onomastika (o‘quv qo‘llanma). - Buxoro. 2023.
9. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2015.
10. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Toshkent. 2018.